



The development of integration processes in state and societal governance systems of advanced foreign countries

Nurmurod DJURAEV¹, Kamoliddin MIRZAAKHMEDOV²

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 15 October 2025

Available online

25 November 2025

Keywords:

decentralization,
new public administration,
corporate public
administration,
democracy,
organizational development.

ABSTRACT

In the 21st century, the principles of global governance are changing, and relations between the state and society are taking on a new meaning. The experience of developed countries shows that in modern political and legal systems, integrated cooperation between "state and society" is being formed as a priority management model. In this process, civil society institutions, non-governmental non-profit organizations, the media, the private sector and state organizations are creating a complex management system that works in harmony with each other.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss5-pp90-96>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Rivojlangan xorij mamlakatlarida davlat va jamiyat boshqaruvi tizimidagi integratsion jarayonlar rivoji

Kalit so'zlar:

nomarkazlashtirish,
yangi davlat boshqaruvi,
korporativ davlat
boshqaruvi,
demokratiya,
tashkiliy rivojlanish.

ANNOTATSIYA

XXI asrda global boshqaruv tamoyillari o'zgarib, davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangi mazmun kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, zamonaviy siyosiy-huquqiy tizimlarda "davlat – jamiyat" o'rtasidagi integratsion hamkorlik ustuvor boshqaruv modeli sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, xususiy sektor va davlat tashkilotlari o'zaro muvofiqlikda ish olib boradigan kompleks boshqaruv tizimini vujudga keltirmoqda.

¹ Independent researcher, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

E-mail: djurayev@gmail.com

² Doctor of Political Sciences (DSc), Professor, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

Развитие интеграционных процессов в системе государственного и общественного управления в развитых зарубежных странах

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

децентрализация,
новое государственное
управление,
корпоративное
государственное
управление,
демократия,
организационное
развитие.

В XXI веке меняются принципы глобального управления, и отношения между государством и обществом приобретают новый смысл. Опыт развитых стран показывает, что в современных политико-правовых системах формируется интегрированное взаимодействие «государства и общества» как приоритетная модель управления. В этом процессе институты гражданского общества, негосударственные некоммерческие организации, средства массовой информации, частный сектор и государственные организации создают сложную систему управления, гармонично взаимодействующую друг с другом.

KIRISH

Markaziy davlat organlari tasarrufidagi hudud holati haqidagi axborot to'liq va aniq bo'lmaganligi sababli markaziy davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish muhim vazifaga aylandi. Bundan tashqari, ekologik muammolarning yuzaga kelishi, texnologiyalarning shiddat bilan yangilanishi, AKTning rivojlanishi, ya'ni tashqi muhitning tez-tez o'zgarib borishi, davlat boshqaruvida eski yondashuvlardan voz kechishga olib keldi. O'sha davrdagi zamon talablari menejerializm, jamiyat tanlovi nazariyasi, shartnomalar nazariyasi, noaniqlik sharoitida ratsional qarorlar qabul qilish nazariyasi, o'yinlar nazariyasi, biznes menejment va marketing usullarini davlat boshqaruvida qo'llashni taqozo etardi.

1992-yilda Devid Osborn va Ted Gebler tomonidan yaratilgan "Boshqaruvni qayta tashkil etish: tadbirkorlik ruhi davlat sektorini qanday o'zgartiradi" nomli yangi asar ilm ahliga taqdim etildi. Bu kitobda zamonaviy davlat va jamiyat boshqaruvini tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan nazariy yondashuvlar, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida olingan xulosa hamda takliflar keltirilgan. Keyinchalik Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanshi Tashkiloti turli mamlakatlarda amalga oshirilgan davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarni tahlil qilib, "yangi davlat boshqaruvi" uslublarini o'ziga xos holda umumlashtirdi. Shundan so'ng, olimlar "yangi davlat boshqaruvi" nazariyasini yanada rivojlantirish ishlarini boshlab yuborishdi.

"Yangi davlat boshqaruvi" (New Public Management)ning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: davlat boshqaruvi organi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini ta'minlash; davlat xizmatlarini ko'rsatishda davlat tashkilotlari va xususiy korxonalar orasidagi raqobatni ta'minlash; samarasiz ishlayotgan davlat korxonalarini xususiylashtirish hamda iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish; markaziy davlat boshqaruvini subsidiarlik tamoyili asosida vertikal va gorizontaal yo'nalishlarda nomarkazlashtirish; ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni davlat va xususiy sektor sherikchiligi asosida amalga oshirish; davlat siyosati va davlat ma'murchiligini farqlash; davlat ma'murchiligida zamonaviy personal boshqaruvi, moliya boshqaruvi, hududiy

marketing, rejalashtirish va prognozlashtirish, loyihalar menejmenti hamda optimal qaror qabul qilish usullarini qo'llash; davlat xizmatlarini ko'rsatishda "outsorsing" va "kontrakting aut" usullaridan foydalanish; davlat organlari hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi axborot almashinuvini ta'minlash maqsadida davlat boshqaruvini axborotlashtirish; budget defitsitini yo'qotish.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, har qanday nazariya muayyan kamchiliklarga ega, (New Public Management) modeli ham bundan xoli emas. P. Danlevi va K. Xud (New Public Management) modelining kamchiliklarini umumlashtirishdi. Tanqidchilar ko'p hollarda "kuchli davlat" va "kuchli jamiyat" tarafdorlariga ajratish mumkin. "Kuchli davlat" tarafdorlari "New Public Management" modelining quyidagi kamchiliklarini keltirishadi: "New Public Management" modelidan kelib chiqadigan va davlat xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar bozor munosabatlari yuqori darajada shakllanganligini nazarda tutadi, ya'ni ushbu ta'limotda bozor munosabatlari past darajada rivojlangan holatlar tahlil qilinmaydi; bozor munosabatlariga tayanish ba'zi sohalarida, masalan, mudofaa sohasida boshqaruv samaradorligini pasaytirib yuborishi mumkin, chunki olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, harbiy sohada aynan boshqaruvning byurokratik modeli samarali deb topilgan. "Kuchli jamiyat" tarafdorlari "New Public Management" modelini tanqid ostiga olishadi: "New Public Management" modelida korrupsiyaning oldini olishga yetarli e'tibor berilmagan, ya'ni kuchli jamoatchilik yoki fuqarolik nazoratini joriy etish mexanizmlariga oid masalalar chuqur o'rganilmagan; "New Public Management" modelining joriy etilishi davlat sektorining tijoratlashib ketishiga olib keladi, buning natijasida, hattoki, nodavlat notijorat tashkilotlari ham rentabellikka erishishni birinchi o'ringa qo'yib, ijtimoiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishadi, chunki ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi o'ailashadi.

Hozirgi kunda "Yangi davlat boshqaruvi" tamoyillari AQSH, Angliya va Avstraliyada keng qo'llaniladi. Natijada, aynan shu mamlakatlarda davlat sektori nihoyatda tijoratlashtirilib, bozor iqtisodiyoti yanada rivojlantirildi hamda davlatning undagi ishtiroki keskin kamaytirildi.

1997-yilda BMT tomonidan ishlab chiqilgan Taraqqiyot dasturlari hujjatlarida ilk bor "Good Governance" ta'limoti yaxlit konsepsiya sifatida o'z aksini topdi. "Good Governance" modeli Jahon banki, Xalqaro Valyuta Fondi, Yevropa Ittifoqi tomonidan yanada rivojlantirildi.

"Good Governance" modeliga ko'ra, davlat va jamiyat boshqaruvineng eng oliy maqsadi-davlat va jamiyat o'rtasida yuqori darajadagi ishonchga erishish. Lekin bunga erishish uchun davlat organlari alohida emas, balki fuqarolar, NNTlar va biznes subyektlari bilan sherikchilikda davlat xizmatlarini ko'rsatishi lozim, ya'ni davlat boshqaruvini davlat va jamiyat vakillari birgalikda amalga oshirishlari lozim. Bu qaysidir ma'noda korporativ davlat boshqaruvi demkdir.

Mazkur modelga ko'ra, korporativ davlat boshqaruvini joriy etish maqsadida quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- muammolarni yechishda manfaatdor tomonlarning sherikchiligi;
- davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning ishtiroki;
- diskriminatsiya va adolatsizlikka yo'l qo'ymaslik;
- davlat va jamiyat boshqaruvida qonun va etikaning ustuvorligi;
- davlat boshqaruvi organlarining manfaatdorlar oldida hisobdorligi;
- barqaror rivojlanish.

Hozirgi paytda ayrim rivojlangan mamlakatlarda bir paytda ham “Good Governance” ham “New Public Management” tamoyillari sintezi asosida davlat va jamiyat boshqaruvi amalga oshirilmoqda.

Aynan bugungi kunda “Good Governance” modeli davlat siyosati mazumini, yo‘nalishlari, maqsad hamda vazifalarini bevosita fuqarolik jamiyati belgilamoqda. Bu borada davlatning roli davlat sifatining xalq ichidagi muhokamasini tashkillashtirib berishdan iborat. Demak, bunday modelda davlat boshqaruvi sifati, birinchi navbatda, fuqarolik jamiyati vakillari va fuqarolarning tafakkuri hamda siyosiy faolligi darajasiga bog‘liq.

Jumladan, zamonaviy Germaniyada davlat va jamiyat boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan islohotlar aynan o‘tgan asrning 90-yillarida boshlandi. Bunga quyidagilar sabab bo‘ldi: xalqaro raqobat va globalizatsiya jarayonlari, tashqi muhit holati noaniqligi darajasining oshib borishi, byurokratik boshqaruv tizimlarining tashqi ta’sirlarga moslashuvchanligi darajasining pastligi. Aniqlor qilib aytganda, “Veberianizm” dan “yangi davlat boshqaruvi”ga o‘tish jarayonlari boshlandi. Davlat va jamiyat boshqaruvining “samaradorlikni ta’minlash va o‘zgarishlarga moslashuvchanlik” tamoyillari ustuvor deb tan olindi, “formal qoidalarni o‘zgartirmaslik va ularga tayanish” tamoyillari esa o‘z ustuvorligini tamomila yo‘qotdi.

Zamonaviy Germaniya kansler demokratiyasi kabi tushuncha bilan tavsiflanadi, bu federal kanslerni ijro etuvchi hokimiyatning mutlaq rahbari sifatida ta’minlashni anglatadi. Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy Qonunining 62-moddasida kansler o‘zining rasmiy vakolatlarini federal vazirlar bilan bo‘lishishi shartligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, aslida Germaniya Konstitutsiyasining boshqa moddalari unga eng muhim davlat funksiyalarining aksariyat qismini bajarishga to‘liq huquq beradi. Bir shaxsning deyarli cheksiz va qonuniy vakolatiga qaramay, Germaniya davlat va jamiyat boshqaruvi mustahkam konstitutsiyaviy tuzum bilan ajralib turadi.

Germaniya davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining yana bir o‘ziga xos xususiyati uning nisbiy markazsizlashuvi bilan hokimiyatning aniq markazlashuvi, ya’ni mutlaqo qarama-qarshi ikkita hodisadir. Germaniyada davlat boshqaruvida federatsiya va federal shtatlar o‘rtasida vakolatlarining aniq chegaralanishi mavjud.

Germaniyada jamiyat boshqaruviga fuqarolarni jalb etish demokratik tizimning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunga:

- jamoatchilik muhokamalari – yangi qonunlar va yirik loyihalar jamoat muhokamasidan o‘tkaziladi;
- nodavlat notijorat tashkilotlari – fuqarolik jamiyatining faol subektlari sifatida siyosiy jarayonlarda ishtirok etadi;
- referendumlar va petitsiyalar – ayrim yerlarda muhim masalalar bo‘yicha referendum o‘tkazish huquqi mavjud;
- mahalliy darajada ishtirok – kommunalar va munitsipal kengashlarda fuqarolar bevosita ovoz berish va tashabbus bildirish huquqiga ega;
- ommaviy axborot vositalari – hukumat faoliyati yuzasidan ochiq va tanqidiy nazorat olib boradi.

Federalizm, mahalliy mustaqillik, fuqarolarning faol ishtiroki, samarali davlat xizmati, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish va hisobdorlik mexanizmlari ushbu tizimni barqaror va ishonchli qiladi. Germaniya modeli ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun ham o‘rnak bo‘ladigan amaliy yo‘nalishlardan iboratdir. Xususan, mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, jamoatchilik nazoratini joriy etish va davlat xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha ushbu tajriba alohida ahamiyatga ega.

Davlat boshqaruvi sohasida turli islohot va o'zgarishlar natijasida XX asrning oxiriga kelib, davlat "boshqaruvchi" emas, "ishtirokchi"lardan biri ekanligi yaqqol namoyon bo'la boshladi. Bu borada davlatning vertikal boshqaruvdan davlat hokimiyati idoralari, fuqarolik jamiyati institutlari va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi, ya'ni gorizontal tartibga o'tganligini ko'rsatish mumkin. Bu o'z navbatida, davlat qarorlari qabul qilinishi jarayonida barcha manfaatdor tomonlar ishtirok etishiga olib keldi.

AQShda davlat boshqaruvining samaradorligini aniqlovchi indekslardan biri – bu fuqarolarning davlat xizmatlaridan qoniqqanligi darajasidir (ACSI – American Customer Satisfaction Index). Buning asosida har yili dekabr oyida federal hukumatlarning joriy yildagi faoliyatiga baho berish tizimi amaliyotga tatbiq qilingan.

Amerika davlat boshqaruvi maktabi rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq uning ko'plab taniqli vakillari nafaqat nazariyotchilar, balki amaliyotchilar ham bo'lishgan. Amerika maktabida haqli ravishda klassik yo'nalish asoschilaridan biri hisoblangan professor L.Uayt Davlat xizmati ishlari bo'yicha komissiya a'zosi sifatida keng ko'lamli amaliy faoliyat olib bordi. Uning "Davlat boshqaruvi faniga kirish" (1926) fundamental nazariy asari ko'p jihatdan AQSH davlat boshqaruvi amaliyotini umumlashtirish hisoblanadi.

Nazariy jihatdan L.Uayt biznesda menejmentni tashkil etish bilan shug'ullangan F.Teylor, G.Gantt va L.Gilbretlarning ishlariga ko'p tayangan. F. Teylordan keyin L. Uayt ma'muriy va davlat boshqaruvida resurslardan foydalanishni optimallashtirish minimal xarajatlar bilan maksimal samaradorlik bilan belgilangan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi kerakligini ta'kidladi. U ixtisoslashuv, buyruqlar birligi, qo'l ostidagilar sonini qisqartirish, mas'uliyatni yuklash, markazlashtirish, korporativ ruhni (kadrlar uyg'unligini) davlat boshqaruvi san'atining asosiy tamoyillari deb bildi.

XX asrning 60 yillariga kelib, AQShda boshqaruv tizimini dasturlash, rejalashtirish va budjetlashtirish asoslari ishlab chiqilgan (PPBS – Planing – Programming – Budgeting – System). PPBS birinchi marta AQSH Mudofaa vazirligida 1961 yilda R.Maknamar tomonidan taqdim qilingan bo'lib, keyinchalik davlat tashkilotlari faoliyatiga joriy qilingan. Mazkur tizim siyosatda muayyan ijobiy natijaga erishish uchun o'rta va uzoq istiqbolga mo'ljallangan aniq rejalarini ishlab chiqish va davlat mablag'laridan oqilona foydalanishni aks ettirgan.

So'nggi o'n yilliklarda AQShda davlat va jamiyat boshqaruvi tizimida "tashkiliy rivojlanish kontseptsiyasi" katta qiziqish uyg'otdi. Uning kelib chiqishini boshqaruv xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirishga bag'ishlangan ishlanmalarda topish mumkin. Nazariy jihatdan u A. Maslou, M. Makgregor, R. Likert asarlaridan ko'p narsani oladi. Amerika maktabida "tashkiliy rivojlanish" tushunchasining umumiy qabul qilingan ta'rifi haligacha mavjud emas. Biroq, aytish mumkinki, bu kontseptsianing dastlabki asosi ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlar tezligi va murakkabligi oshirishini tasdiqlashdir.

Mazkur zamonaviy konsepsiya quyidagi xususiyatlarni ilgari suradi:

- tez o'zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy muhit talablariga muvofiq davlat boshqaruvi yangi maqsadlariga moslashishi kerak;

- davlat va jamiyat boshqaruvining yetakchi siyosiy institutlari hamkorlik qilishi qobiliyatiga ega bo'lishi shart;

- davlat va jamiyat boshqaruvi tizimining barcha jabhalarini rivojlantirishda davlat xizmatchilari o'zgarishlarni, strategik maqsadlarni belgilash va qarorlar qabul qilishda barcha darajada ishtirok etishi qoida hisoblanishi kerak;

– rivojlanayotgan ma'muriy va davlat boshqaruvi institutlari o'z a'zolarining o'zini o'zi anglashi uchun qulay imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu davlat xizmatchilari o'rtasida erkin muloqot (ochiq muloqot) va yuqori darajada o'zaro ishonchni talab qiladi, bu esa barcha qarama-qarshiliklarni konstruktiv hal qilishga hissa qo'shishi kerak.

Tashkiliy rivojlanishning maqsadi davlat va jamiyat boshqaruvi tizimi faoliyati samaradorligini oshirishdan iborat. Bu, jumladan, ma'muriy tuzilmalarning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanishdagi o'zgarishlarga, boshqaruv tizimining o'zida tuzilma va uslublardagi o'zgarishlarga tez va tezkor moslasha olishi bilan ta'minlanadi. Ushbu maqsadga erishish vositasi – bu odamlarning qadriyat yo'nalishlari tizimiga, ularning shaxslararo va guruhlararo o'zaro munosabatlariga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali erishiladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlat boshqaruvi sohasidagi xorijiy tajribani tahlil qilish jamiyat hayotining ushbu sohasida sodir bo'layotgan umumiy qonuniyatlar, zamonaviy tendentsiyalar, asosiy jarayonlarni aniqlashga yordam beradi. Har qanday davlatga mos keladigan universal boshqaruv modeli mavjud emasligini ilmiy jamoatchilik isbotlamoqda. Biroq, bir nechta boshqaruv tizimlarini taqqoslash va bir nechta davlat modellarini sinchkovlik bilan o'rganish orqali davlat boshqaruvining u yoki bu modelini yanada samaraliroq bo'lishiga yordam beradigan qandaydir xulosa va natijalarga erishish mumkin. Jumladan:

Davlat va jamiyat boshqaruvining integratsiyalashuvi fuqarolarning faol ishtirokisiz samarali amalga oshmaydi. Xorij tajribasida, ayniqsa Germaniyada, jamoatchilikning boshqaruv jarayonlarida bevosita yoki bilvosita ishtirok etishi (qonun muhokamalari, mahalliy kengashlar, elektron petitsiyalar) orqali integratsiya jarayoni fuqarolar manfaatlari bilan uyg'un holatda olib boriladi.

Davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonch darajasi integratsiya jarayonining samarasini belgilaydi. Xalqaro tadqiqotlar ko'rsatishicha, boshqaruvda shaffoflik, korrupsiyaga qarshi samarali kurash va adolatli kadrlar siyosati davlat-jamiyat munosabatlarida ishonchli muhitni yaratadi.

“Davlat va jamiyat boshqaruvi” – bu murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-siyosiy jarayon bo'lib, uning mazmunini chuqur anglash uchun tahliliy va metodologik yondashuvlar zarur. Davlat boshqaruvi – fuqarolarning umumiy manfaatlarini amalga oshirish uchun qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tomonidan yuritiladigan faoliyat shaklidir. Jamiyat boshqaruvi esa faqat rasmiy davlat institutlari emas, balki fuqarolik jamiyati subyektlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va nodavlat tuzilmalarning hamkorligi orqali amalga oshiriladigan keng qamrovli jarayondir.

Rivojlangan mamlakatlar – xususan Germaniya, AQSH davlatlari tajribasi shundan dalolat beradiki, davlat va jamiyat boshqaruvining integratsiyasi samaradorlikni oshiradi, fuqarolar ishonchini mustahkamlaydi va barqarorlikni ta'minlaydi. Germaniyada “kooperativ federalizm” modeli orqali markaziy va hududiy hokimiyatlar hamkorligi, jamoatchilikning qaror qabul qilishdagi ishtiroki yo'lga qo'yilgan. AQShda “qatlamli boshqaruv” (multi-layered governance) amaliyoti keng tarqalgan bo'lib, davlat, shtat va mahalliy hokimiyat fuqarolar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Skandinaviya davlatlarida esa fuqarolik jamiyati institutlari davlat siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi subyektlar hisoblanadi. Bu tajribalardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, davlat va jamiyat o'rtasida muvozanat va hamkorlik tizimi shakllangan

mamlakatlarda ijtimoiy taraqqiyot barqaror va inklyuziv tus oladi. Integratsiya – bu faqat ma'muriy islohot emas, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni uyg'unlashtirish vositasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Osborne D.E., Gaebler T. Reinventing government: how the entrepreneurial spirit is transforming the public sector. MA: Addison-Wesley, 1992.
2. OECD. Governance in transition: public management reforms in OECD countries. Paris: OECD, 1995.
3. Dunsire A. Administrative theory in the 1980 s: a viewpoint. Public Administration, 1995. 17-40.
4. Dunleavy P. Hood C. From Old Public Administration to New Public Management. Public Money / Management, 14(3), 9-16
5. Eikenberry A.M., Drapal Kluver J. The Marketization of the Nonprofit Sector: Civil Society at Risk? Public Administration Review, 2014. 64(2), 132-140.
6. Governance for Sustainable Human Development. New York: UNDP, 1997.
7. Германия. Вызовы 21 в. / под ред. В.Б.Белова. –М., Весь мир, 2019.
8. Weber M. Economy and Society, Vol.2, ed. 1922.
9. Система государственного управления Германии [Электронный ресурс]. -Режим доступа: [http:// knowledge.allbest.ru/law/3c0b65635a2ac68a5c53b89421216d27_1.html](http://knowledge.allbest.ru/law/3c0b65635a2ac68a5c53b89421216d27_1.html).
10. Гончаренко О. Г. Российская Федерация и международный опыт федерализма: автореф. дис. ... канд. юрид. наук: 23.00.02 / Гончаренко Олег Геннадьевич. -М., 2022. -29 с
11. Somit A., Tanenhaus J. The Development of American Political Science. N.Y., 1982. P. 21.
12. Bu yondashuv keyinchalik Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (IHTT) a'zo davlatlar tomonidan faol qo'llanila boshlandi.
13. Новые технологии государственного управления в зеркале канадского и российского опыта: монография / под ред. А. М. Марголина и П. Дуткевича. – М.: Моск. городск. ун-т управления правительства Москвы, 2013. – С. 49
14. K.Mirzaaxmedov. Davlat boshqaruvi / O'quv qo'llanma. -Toshkent, "Zilol buloq", 2025. -30 b.